O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI OLTINSOY TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Oltinsoy tumani, Mustaqillik ko’chasi 8-uy, 190700, tel: (+99876) 47-77-516, oltinsoy_t@exat.uz, www.Oltinsoy.uz

2022 - yil 21 - dekabr 510-8-108-Q/22 Oltinsoy tuman hokimligi

Tumanda 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2023-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2023-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil

avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1 mart- 30 iyunda;

ikkinchi marta – 1 sentabr- 31 oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1 yanvar – 31 dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2022-yil 1-apredagi “Tuman hududidagi yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 91-8-108-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari I.Babakulov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.T.Djumayev**

Oltinsoy tuman hokimining
2022 yil 21 dekabrdagi
510-8-108-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi

T A R K I B I

Komissiya raisi :

N.Sobidinov		Oltinsoy tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi bo‘linmasi boshlig‘i, komissiya raisi

Komissiya a’zolari:

S.Boyev	-	Tuman Yo‘llardan foydalanish unitary korxonasi boshlig‘i
S.Rajabova	-	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi texnik xodimi
F.Safarov		tuman ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi boshlig‘i
A.Qodirov	-	Tuman avtomotohavaskorlar ko‘ngilli jamiyati raisi *(kelishuvga asosan)*

Komissiya kotibi:

U.Ergashev	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXB inspektori

Oltinsoy tuman hokimining
2022 yil 21 dekabrdagi
510-8-108-Q/22-son qaroriga
2-ilova

T/r	Tashkilot nomi	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish joyi	O‘tkazish Sanasi	Transport soni	O‘tkazish vaqti soati
1.Energetika va elektrlashtirish vazirligi kod 01013					
1	Elektr tarmoqlar korxonasi	Tashkilot hududida	06.03.2023 yil	2 ta	09 00-12 00 gacha
2.Neft va gaz sanoati milliy korparatsiyasi (Uz.neft.gaz)kod 01024					
2	Tuman gaz ta’minoti bo‘limi	Tashkilot hududida	07.03.2023 yil	8 ta	09 00-12 00 gacha
3. Aloka Vazirligi kod 03573					
3	Oltinsoy Qorliq telemunikatsiya bo‘limi	Tashkilot hududida	08.03.2023 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
4	Pochta bo‘limi	Tashkilot hududida	9.03.2023 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
5	Xalq va xayot gazetasi taxririyati davlat korxonasi	Tashkilot hududida	9.03.2023 yil	2 ta	14 00-16 00 gacha
4.Sog‘liqni saqlash vazirligi kod 03873					
6	Oltinsoy tuman Tibbiyot birlashmasi	Tashkilot hududida	10.03.2023 yil	12 ta	09 00-12 00 gacha
7	DSNEM	Tashkilot hududida	11.03.2023 yil	2 ta	09 00-12 00 gacha
5.Oliy va maxsus urta ta’lim vazirligi kod 03903					
8	Oltinsoy tuman Xalq ta’lim muassasasi	Tashkilot hududida	14.03.2023 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
9	Uquv sport texnika klubi (KX kolleji)	Tashkilot hududida	15.03.2023 yil	8 ta 1ta yuk	09 00-12 00 gacha
10	Sanoat kolleji	Tashkilot hududida	16.03.2023 yil	2 ta	09 00-12 00 gacha
11	Transport kolleji	Tashkilot hududida	17.03.2023 yil	3 ta	09 00-12 00 gacha
12	Oltinsoy trans MChJ	Tashkilot hududida	20.03.2023 yil	2 ta	09 00-12 00 gacha
13	Nur trans MChJ	Tashkilot hududida	21.03.2023 yil	2 ta	09 00-12 00 gacha
14	MEGA TRANS MChJ	Tashkilot hududida	22.03.2023 yil	1 ta (75/898TTF)	09 00-12 00 gacha
7.Mudofaga kumaklashuvchi «Vatanparvar» jamiyati kod 04864					
15	Vatanparvar	Tashkilot hududida	23.03.2023 yil	7 ta	10 00-12 00 gacha
16	Avtoxavoskorlar kungilli jamiyati	Tashkilot hududida	24.03.2023 yil	7 ta	10 00-12 00 gacha
17	Avto Ziyo Unitar korxonasi	Tashkilot hududida	27.03.2023 yil	7 ta	10 00-12 00 gacha
8. Markaziy bank kod 05054					
18	Xalk bank	Tashkilot hududida	28.03.2023 yil	1ta	08 00-12 00 gacha
19	Inkasasya	Tashkilot hududida	28.03.2023 yil	2 ta	08 00-12 00 gacha

9. Fermer xujaliklar kodi 06444					
20	Xurshid Ravnaki DFX	Tashkilot hududida	03.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
21	Ruziboy DFX (Nomoz fermer)	Tashkilot hududida	03.04.2023 yil	3 ta	08 00-12 00 gacha
22	Tilovmurod-Alisher DFX (A.Turaev)	Tashkilot hududida	04.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
23	Bogbon Muxammad DFX (Neksiya 75/127KAA Dug‘oba max)	Tashkilot hududida	05.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
24	Turob Berdimuratov DFX	Tashkilot hududida	05.04.2023 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
25	Botosh LochiniDFX (Mardon chapaxon)	Tashkilot hududida	06.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
26	Feruz DFX	Tashkilot hududida	07.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
27	Dexkonbobo DFX (X.Jumaev)	Tashkilot hududida	07.04.2023 yil	1 ta	14 00-15 00 gacha
28	Eshmuradbobo FX (Kurbonali aka)	Tashkilot hududida	10.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
29	Dugoba Saxovati DFX (Togay aka)	Tashkilot hududida	10.04.2023 yil	1 ta	14 00-15 00 gacha
30	Chori Tangriqul F/X	Tashkilot hududida	11.04.2023 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
10. O‘z komunal xizmat agentligi kodi 07344					
31	Obodonlashtirish Davlat korxonasi	Tashkilot hududida	12.04.2023 yil	4 ta (1 ta nosoz)	09 00-12 00 gacha
32	Oltinsoy tumani Toza xudud DUK	Tashkilot hududida	13.04.2023 yil	14 ta	09 00-12 00 gacha
11. O‘zbek Avtoyul DAK kodi 07304					
33	Oltinsoy TYFUK	Tashkilot hududida	14.04.2023 yil	6 ta (1 ta nosoz)	08 00-12 00 gacha
12. Qishloq va suv xujaligi vazirligi kodi 08054					
34	Kishlok xujalik Kimyo AJ Oltinsoy filiayali	Tashkilot hududida	17.04.2023 yil	2 ta	08 00-12 00 gacha
35	Bobur MMTP	Tashkilot hududida	17.04.2023 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
36	Oltinsoy tumani Veterenariya Labaratoriyasi	Tashkilot hududida	18.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
37	Temurbek trans MChJ	Tashkilot hududida	18.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
38	Sarbon Farm x\k	Tashkilot hududida	19.04.2023 yil	2 ta	08 00-12 00 gacha
13. Yog‘ moy va Oziq ovqat sanoati Assosiyasi kodi 08234					
39	Oltinsoy Savdo UChSTSJ MChJ	Tashkilot hududida	20.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
14. Davlat soliq qo‘mitasi kod 70414					
40	Oltinsoy DSI	Tashkilot hududida	21.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
41	Moliya bulimi	Tashkilot hududida	21.04.2023 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
15. O‘z Agro Mash servis kodi 08074					
42	Oltinsoy tuman MTP OAJ	Tashkilot hududida	24.04.2023 yil	3 ta	08 00-12 00 gacha
43	Janub Bunyodkori MChJ	Tashkilot hududida	25.04.2023 yil	1 ta (nowo 75/635KAA)	08 00-12 00 gacha

44	ILXOM NODIR MChJ	Tashkilot hududida	26.04.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
16. Boshqa Vazirliklar kodi 09999					
45	Nurafshon Shabnam x\f	Tashkilot hududida	27.04.2023 yil	2 ta	08 00-10 00 gacha
46	Maxallasi va oilani qo‘llab quvvatlash Oltinsoy t bo‘limi	Tashkilot hududida	02.05.2023 yil	1 ta (matiz 75/312AA)	09 00-12 00 gacha
47	Vet malxam x\f	Tashkilot hududida	02.05.2023 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
48	Rustam Xususiy korxonasi (GAZ)	Tashkilot hududida	03.05.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
49	Lobar KTSICh Xususiy firmasi	Tashkilot hududida	04.05.2023 yil	4 ta	08 00-12 00 gacha
50	Norkobil Gaz Xususiy firmasi	Tashkilot hududida	04.05.2023 yil	4 ta	14 00-16 00 gacha
51	Maktabgacha ta’lim bo‘limi	Tashkilot hududida	08.05.2023 yil	1 ta Damas 75/038ZAA	08 00-12 00 gacha
52	Ma’shal YuSN xususiy firmasi	Tashkilot hududida	09.05.2023 yil	3 ta	08 00-12 00 gacha
53	Bandlikga kumaklashish markazi	Tashkilot hududida	10.05.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
54	Yaxna Zilol MChJ	Tashkilot hududida	11.05.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
55	Baxt Mash Surxon MChJ	Tashkilot hududida	11.05.2023 yil	2 ta	14 00-16 00 gacha
56	Oltinsoy Surxon Meva invest MChJ (post usti bog)	Tashkilot hududida	12.05.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
57	Suptropik ekinlar Ilmiy AM UK (Togoy aka)	Tashkilot hududida	15.05.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
58	Abdirauf x\f	Tashkilot hududida	15.05.2023 yil	2 ta	14 00-16 00 gacha
59	Otabek Baxt yuli Xususiy firmasi (Abdiraxman zapravka)	Tashkilot hududida	16.05.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
60	Muradjon sarbon x\k (Buri domla)	Tashkilot hududida	16.05.2023 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
61	Mansurbek Otabek X\K (Shuxrat)	Tashkilot hududida	17.05.2023 yil	4 ta	09 00-12 00 gacha
62	Mexribonu Fayz MChJ	Tashkilot hududida	18.05.2023 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
63	Said Sardor KTXK	Tashkilot hududida	18.05.2023 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
64	Muradjon Bunyodkor X\K	Tashkilot hududida	19.05.2023 yil	1 ta	14 00-15 00 gacha
65	Oltinsoy Sharob savdo IBUK (Ikrom)	Tashkilot hududida	22.05.2023 yil	4 ta	09 00-12 00 gacha
66	Oltinsoy Veterenariya bo‘limi	Tashkilot hududida	23.05.2023 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
67	Oltinsoy Xokimiyati	Tashkilot hududida	23.05.2023 yil	6 ta	14 00-16 00 gacha
68	Sulton sharbati MChJ (Ikrom)	Tashkilot hududida	24.05.2023 yil	6 ta	09 00-12 00 gacha
69	Tamirchi Agrokurulish MChJ (Amirov Bozor)	Tashkilot hududida	25.05.2023 yil	6 ta	09 00-15 00 gacha
70	Xamro xojibek MChJ	Tashkilot hududida	26.05.2023 yil	2 ta	08 00-12 00 gacha

71	Oltinsoy Agrosug‘urta (Nasimxon eshon)	Tashkilot hududida	01.06.2023 yil	1 ta	13 00-15 00 gacha
72	EAST-WEST SURXON kushma korxonasi (UAZ.Sh.kamish)	Tashkilot hududida	05.06.2023 yil	1 ta	09 00-15 00 gacha
73	Kamol Kup tarmokli xususiy korxonasi (Ural.Pardaev)	Tashkilot hududida	05.06.2023 yil	1 ta	14 00-16 00 gacha
74	Sobir Abdimuradov DFX (Xujasoat)	Tashkilot hududida	06.06.2023 yil	1 ta	08 00-12 00 gacha
75	Turum Almardanov x\korxonasi (Axmadboy)	Tashkilot hududida	07.06.2023 yil	1 ta	09 00-12 00 gacha
76	Buribobo kup tarmokli x\k (Ismoil aka)	Tashkilot hududida	08.06.2023 yil	1 ta	14 00-15 00 gacha
77	«ALTIMABIL GROUP» OOO (90 5221011)	Tashkilot hududida	09.06.2022 yil	6 ta	09 00-12 00 gacha
78	Oltinsoy Bog‘dorchilik va Agrosanoat Klaster	Tashkilot hududida	12.06.2023 yil	1 ta nowo 75/140ZAA	13 00-15 00 gacha
79	Farrux-Erkin X/F	Tashkilot hududida	13.06.2023 yil	8 ta	09 00-12 00 gacha